HUDUDLARNING INVESTITSION SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI VA USTUVOR YO'NALISHLARI	1258
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
BANK MAHSULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	1264
Xujamuratov Abbos Mardonovich	



ISLON BANK MAHSULOTLARINI JORIY ETISH METODOLOGIYASI: XALQARO TAJIRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1270
Voxidov Oybek Roziqovich	
SUG'URTA BOZORIDA INVESTITSION FAOLIYATNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1275
Fayziyev Oybek Raximovich	
DETERMINANTS OF WAGES IN THE MODERN LABOUR MARKET: A LITERATURE REVIEW.....	1279
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
ЦИФРОВЫЕ ПРОЕКТЫ И ИННОВАЦИОННЫЕ СИСТЕМЫ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ОТРАСЛИ.....	1288
Каракулов Фарход Зайпудинович	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	1294
Achilov Ilmurad Nematovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING AKADEMIK XAVFLARINI BOSHQARISHDA SUG'URTA MEXANIZMLARINI JORIY ETISH.....	1299
G'aniyev G'olibjon Abdiraxmanovich	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA MERCHANDAYZING STANDARTLARINI QO'LLASH MEXANIZMINI ISHLAB CHIQISH MASALALARI.....	1305
Safarov Baxtiyor Djurakulovich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARI B2B BOZORIDA MARKETING STRATEGIYALARINING INNOVATSION TAHLILI	1314
Sapayeva Nilufar Kadambayevna	
FRANSUZ TILIDA FONO-GRAFOSTILISTIK VOSITALAR: TIPOLOGIYA VA KLASSIFIKATSIYA	1319
Islomov Dilshod Shomurodovich	
PRACTICAL ASPECTS OF SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT IN MAHALLAS	1324
Gafurov Ubaydullo Vakhobovich	
GUDVILL VA XARIDDAN KELGAN FOYDANI MHXS ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISHNING ILMIY-AMALIY MASALALARI.....	1329
Abdurasulov Jamshidbek Axmad ug'li	
BANKLARDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISH SAMARADORLIGI	1336
Xabibulloxoji Muhammadsolih Alisher o'g'li	
MARKETING AS A DECISIVE ELEMENT IN THE SUCCESSFUL INTRODUCTION OF INNOVATIVE PRODUCTS TO THE MARKET.....	1343
Davlyatova Gulnara	
KORXONALARDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	1348
Akramov Toxir Abdiraxmanovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISHDA MARKETING VA LOGISTIKA SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY TAMOIYILLARI	1353
Djurayev Bekzod Bekmatovich	
"O'ZBEKNEFTGAZ" AJNING IQTISODIY BARQARORLIGI VA FAOLIYATINING RIVOJLANISHI	1359
Salomova Sarvinoz Salimovna	



BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA AYLANMA IQTISODIYOT TAMOYILLARI VA CHIQINDISIZ ISHLAB CHIQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1364
Kurbanova Dildora Abduraxmanovna	
ENERGIYA TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR VA QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK SAMARADORLIGI	1370
Kurbanova Dildora Abduraxmanovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ELEKTR VA MAISHIY TEXNIKA ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH	1377
Sonaev Sanjar Nurmamatovich	
MAJBURIYATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHDA HISOB SIYOSATINING AMALIY AHAMIYATI	1382
Uzoqova Feruza Baraka qizi	
IJTIMOIIY-IQTISODIY BARQARORLIK VA "OVERTURIZM" OMILLARI KONTEKSTIDA HUDUDIIY TURISTIK DESTINATSIYALAR ISTIQBOLLARINI BAHOLASH	1387
Isrofilov Firdavs Ibrohim o'g'li	
RAQAMLI KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA GRAFIK DASTURLAR ROLI	1394
Axmatova Asila Akmaljon qizi	
BOSHQARUV HISOBIDA BUDJETLASHTIRISH VA UNGA OID YONDASHUVLAR	1397
B.Yu.Maxsudov	
KICHIK VA O'RTA KORXONALARNING HAYOT BOSQICHLARI TAHLILI ASOSIDA AUDIT O'TKAZISH USLUBIYOTINING USTUNLIK VA KAMCHILIKLARI	1402
Muydinov Erkin Jamaldinovich	
TURIZM SOHASINI INVESTITSIYALASHDA INNOVATSION FAOLIYATNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHNING MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1408
Temurbek Olimovich Mamayunusov	
ГИДРОДИНАМИЧЕСКИЕ И РЕОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДВИЖЕНИЯ ТЕКУЧИХ СРЕД С УЧЁТОМ УСКОРЕНИЯ ДЕФОРМАЦИИ	1415
Мирзоев Акмал Ахадович, Ахмадов Илхом Актамович	
O'ZBEKISTON YAIMINING UZOQ MUDDATLI RIVOJLANISHIDA INVESTITSIYALAR, AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI (AKT) VA TASHQI SAVDONING TA'SIRI: KOINTEGRATSIYA TAHLILI	1423
Sobirov Yo'ldoshboy Ro'zimboevich	
РАЗРАБОТКА КЛАССИФИКАЦИОННОЙ СХЕМЫ КОМПОНЕНТОВ КЕРАМИЧЕСКИХ ФЛЮСОВ И МАТЕМАТИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ ФОРМИРОВАНИЯ ХИМИЧЕСКОГО СОСТАВА МЕТАЛЛА ШВА ПРИ АВТОМАТИЧЕСКОЙ ДУГОВОЙ СВАРКЕ	1431
Эрматов Зиядулла Досматович	
OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA XALQARO BOSHQARUVNI JORIY ETISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	1437
Raxmatillayev Sarvarbek Botirjonovich	
INTERNATIONALIZATION AS A TOOL FOR INSTITUTIONAL DEVELOPMENT IN EMERGING HIGHER EDUCATION SYSTEMS	1442
Yunusova Shirin Adxamovna	
NEFT-GAZ SANOATINING GLOBAL ENERGETIKA BOZORIDAGI STRATEGIK VA IQTISODIY ROLI	1448
Salomova Sarvinoz Salimovna	



BUDJET TASHKILOTLARIDA ICHKI NAZORAT TIZIMINI TASHKIL QILISHNING XUSUSIYATLARI	1453
Saidakbarov Xusniddin Abdusalomovich	
INVESTITSION FAOLLIKNI TA'MINLASHDA MOLIYA-KREDIT MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1458
Madaminov In'omjon Ozodovich	
MARKETING STRATEGIYASI YORDAMIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1465
Isakova Naima Ikromjonovna	
INNOVATIVE FINANCIAL MECHANISMS FOR FINANCING RENEWABLE ENERGY AND GREEN ECONOMY PROJECTS: AN ECONOMIC PERSPECTIVE	1469
F. Nishonov	
DDOS HUJUMLARINI ANIQLASH USULLARI	1474
Mardiyev Ulugbek Rasulovich	
O'ZBEKISTONGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALAR OQIMINING STATISTIK TAHLILI	1479
Qosimjonov G'ulomjon Qosimovich	
XORIJIY MAMLAKATLARDA KREDIT PORTFELI SIFATINI OSHIRISH TAJRIBASI VA UNI BOSHQARISH SAMARADORLIGI	1483
Misirov Iskandar Abduvaliyevich	
TIJORAT BANKLARIDA STRATEGIK MENEJMENT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARI	1489
Jamolov Alovuddin Jaloliddin o'g'li	
ZAMONAVIY SHAROITDA TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY RESURSLARINI BOSHQARISH ZARURLIGI VA UNING BANK FAOLIYATIDA TUTGAN O'RNI	1494
Raxmatov Xasan Utkirovich	
EKOLOGIK MONITORING TIZIMLARINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA EVOLYUTSIYASI	1504
Homidov Hamdam Hasanovich	
MEVA-SABZAVOTNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA ICHKI AUDITNING RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGIGA TA'SIRI: MEHNAT, MODDIY VA MOLIYAVIY RESURSLAR KESIMIDA ICHKI AUDIT AHAMIYATI	1509
Rahmatullayev Mirjalol Xatam o'g'li	
MUJASSAMLANGAN MENEJMENT TIZIMLARIDA OPERATSION RISKLARNI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI: METODOLOGIYA VA AMALIY TAHLIL (AVTOMOBIL BUTLOVCHI QISMLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONA MISOLIDA)	1516
Xamrakulova Zarnigorxon Farxodjon qizi	
AMORTIZATSIYA QILINADIGAN AKTIVLAR BOSHLANG'ICH QIYMATINI SOLIQ SOLISH MAQSADLARIDA SHAKLLANTIRISH VA O'ZGARTIRISH MASALALARI	1522
Aminboyev Jaloliddin Otabek o'g'li	
KIBERXAVFSIZLIKKA OID XALQARO STANDARTLARGA ASOSLANGAN ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	1528
Raxmatxo'jayev Rashidxon Rixsitilla o'g'li	



KIBERXAVFSIZLIKKA OID XALQARO STANDARTLARGA ASOSLANGAN ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR

Raxmatxo'jayev Rashidxon Rixsitilla o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Raqqamli iqtisodiyot" kafedrası mustaqil izlanuvchisi

rashidkhon@icloud.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kiberxavfsizlikning global iqtisodiyot hamda milliy infratuzilmalar barqarorligini ta'minlashdagi o'rni, shuningdek, xalqaro standartlarga asoslangan ilg'or xorijiy tajribalar tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida AQSh, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya va Singapur tajribalariga alohida e'tibor qaratilib, ularning milliy strategiyalarida NIST, ENISA va boshqa xalqaro me'yoriy hujjatlardan samarali foydalanish mexanizmlari ochib berilgan.

Shuningdek, xalqaro hamkorlikning ma'lumot almashish, qo'shma ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda xavfsizlik standartlarini takomillashtirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlarga asoslangan yondashuvlar moliyaviy tizimlar barqarorligini mustahkamlash, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish hamda raqqamli iqtisodiyotda ishonch muhitini yanada kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar: kiberxavfsizlik, xalqaro standartlar, moliyaviy tizim, raqqamli iqtisodiyot, xalqaro hamkorlik.

Abstract. This paper examines the role of cybersecurity in ensuring the stability of the global economy and national infrastructures, with particular emphasis on advanced foreign practices based on international standards. The study focuses on the experiences of the United States, the European Union, Japan, and Singapore, highlighting the effective implementation of frameworks such as NIST, ENISA, and other international regulatory guidelines within their national cybersecurity strategies.

In addition, the importance of international cooperation through information sharing, joint research activities, and the development of unified security standards is substantiated. The findings demonstrate that approaches grounded in international standards play a crucial role in strengthening financial system stability, enhancing public-private sector collaboration, and fostering greater trust in the digital economy.

Keywords: cybersecurity, international standards, financial system, digital economy, international cooperation.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль кибербезопасности в обеспечении устойчивости мировой экономики и национальных инфраструктур, а также анализируются передовые зарубежные практики, основанные на международных стандартах. В исследовании особое внимание уделено опыту США, Европейского Союза, Японии и Сингапура, где активно применяются такие международные рамочные документы, как NIST, ENISA и другие нормативные стандарты.

Также раскрыта значимость международного сотрудничества в сфере обмена информацией, проведения совместных научных исследований и разработки унифицированных стандартов безопасности. Полученные результаты подтверждают, что внедрение подходов, основанных на международных стандартах, способствует укреплению устойчивости финансовых систем, развитию взаимодействия между государственным и частным секторами, а также формированию высокого уровня доверия в условиях цифровой экономики.

Ключевые слова: кибербезопасность, международные стандарты, финансовая система, цифровая экономика, международное сотрудничество.



KIRISH

Raqamli transformatsiya sharoitida kiberxavfsizlik global iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy tizimlarning barqarorligi hamda ishonchliligini ta'minlashning asosiy omillaridan biriga aylandi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, transchegaraviy moliyaviy operatsiyalar hajmining ortishi va xalqaro bozorlarning o'zaro integratsiyalashuvi davlatlar, tashkilotlar va fuqarolar uchun yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, kiberxavflarga nisbatan sezuvchanlik darajasini ham oshirmoqda. Shu sababli, kiberxavfsizlikni ta'minlash masalasi nafaqat texnologik, balki iqtisodiy va institutsional barqarorlikni ta'minlashning muhim yo'nalishiga aylanmoqda.

Mazkur muammolarni samarali hal etish maqsadida rivojlangan davlatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan kompleks kiberxavfsizlik standartlari va institutsional mexanizmlar ishlab chiqilgan. Xususan, Xalqaro standartlashtirish tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan ISO/IEC 27000 standartlar seriyasi, AQShning Milliy standartlar va texnologiyalar instituti (NIST) hamda Yevropa Ittifoqi Kiberxavfsizlik agentligi (ENISA) tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar zamonaviy kiberxavfsizlik siyosatini shakllantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur standartlar axborot xavfsizligini boshqarish, xavflarni aniqlash va baholash, ma'lumotlarni himoya qilish hamda kiberhodisalarga tezkor javob berishning yagona va tizimli tamoyillarini belgilaydi. Natijada, davlatlar va tashkilotlar muhim infratuzilmalar, moliyaviy tizimlar va raqamli xizmatlar xavfsizligini ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, AQSh, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya va Singapur kabi rivojlangan davlatlar kiberxavfsizlikni ta'minlashda huquqiy, tashkiliy va texnologik choralarni o'zaro uyg'unlashtirgan kompleks yondashuvni qo'llamoqda. Ularning amaliyotida milliy kiberxavfsizlik strategiyalarini ishlab chiqish, zamonaviy kriptografik himoya vositalarini joriy etish, davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish hamda kadrlar salohiyatini muntazam oshirish ustuvor yo'nalishlar sifatida qaraladi. Shu bilan birga, Global Cyber Expertise Forum (GFCE), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hamda Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi (ITU) kabi xalqaro platformalar doirasidagi hamkorlik kiberxavflarga qarshi birgalikda kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Xalqaro kiberxavfsizlik standartlari va ilg'or xorijiy tajribalarni chuqur o'rganish rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Ushbu tajribalar milliy kiberxavfsizlik tizimini takomillashtirish, raqamli infratuzilma barqarorligini mustahkamlash va global raqamli iqtisodiyot talablariga mos institutsional mexanizmlarni joriy etishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Shu jihatdan, xalqaro standartlar va ilg'or tajribalarni milliy amaliyotga integratsiya qilish barqaror raqamli rivojlanishni ta'minlash, raqamli xizmatlarga bo'lgan ishonchni oshirish hamda milliy va global kiberxavfsizlik tizimining samaradorligini mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kiberxavfsizlik masalalari, ayniqsa xalqaro standartlarga asoslangan ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish yo'nalishida so'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlar sezilarli darajada faollashdi. Global miqyosda axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan ilmiy izlanishlar doirasida turli ilmiy maktablar, xalqaro tashkilotlar hamda yetakchi tadqiqotchilar tomonidan konseptual yondashuvlar, institutsional mexanizmlar va amaliy modellar ishlab chiqilgan.

Xususan, AQShda ishlab chiqilgan NIST Cybersecurity Framework kiberxavfsizlikni boshqarishning samarali modeli sifatida ilmiy hamjamiyat tomonidan keng o'rganilgan. Mazkur modelning moliya, sog'liqni saqlash, energetika va boshqa muhim infratuzilma tarmoqlarida qo'llanilishi, uning xavflarni boshqarish, tahdidlarni aniqlash va ularga javob berish samaradorligini oshirishdagi roli ko'plab ilmiy maqolalarda asoslab berilgan. Ushbu yondashuv kiberxavfsizlikni tizimli boshqarishning universal modeli sifatida xalqaro miqyosda e'tirof etilgan.

Yevropa Ittifoqida esa Yevropa Ittifoqi Kiberxavfsizlik agentligi (ENISA) tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyalar, shuningdek, Computer Emergency Response Team (CERT) tarmoqlari faoliyatining samaradorligi keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar doirasida o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda kiberxavfsizlikni ta'minlashning institutsional mexanizmlari, axborot almashish tizimlari, tahdidlarga tezkor javob berish imkoniyatlari hamda mavjud tizimlarning ustunliklari va rivojlantirish istiqbollari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Osiyo davlatlari, xususan Yaponiya va Singapur tajribasi ham ilmiy adabiyotlarda alohida e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Yaponiya kiberxavfsizlikni ta'minlashda sun'iy intellekt va mashinaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan innovatsion yondashuvlarni joriy etgani bilan ajralib turadi. Bu esa kiberxavflarni oldindan aniqlash va ularning oldini olish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Singapur esa milliy kiberxavfsizlik strategiyasini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish, davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish hamda milliy kiberbarqarorlikni ta'minlash bo'yicha samarali institutsional modelni shakllantirgan davlatlardan biri sifatida ilmiy tadqiqotlarda keng o'rganilgan.

Shuningdek, Global Cyber Expertise Forum (GFCE), International Telecommunication Union (ITU) va Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD) kabi xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorlik mexanizmlari, qo'shma tadqiqotlar va xalqaro standartlarni joriy etish jarayonlari ham zamonaviy ilmiy izlanishlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqotlar xalqaro hamkorlik kiberxavfsizlikni ta'minlash samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini ko'rsatmoqda.

Rivojlanayotgan davlatlar tajribasida esa kiberxavfsizlik tizimini milliy sharoitlarga moslashtirish, xalqaro standartlarni joriy etish, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish masalalari ko'proq amaliy tadqiqotlar doirasida o'rganilgan. Xususan, O'zbekiston va boshqa MDH davlatlarida olib borilgan ilmiy izlanishlar asosan xalqaro tajribalarni milliy axborot infratuzilmasiga moslashtirish, institutsional asoslarni takomillashtirish hamda milliy kiberxavfsizlik strategiyasini rivojlantirish yo'nalishlariga qaratilgan.

Mavzu bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar kiberxavfsizlikni ta'minlashning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirishga muhim hissa qo'shgan. Biroq, xalqaro ilg'or tajribalarni rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida samarali moslashtirish, ularni milliy huquqiy va institutsional tizimga integratsiya qilish hamda milliy kiberxavfsizlik modelini shakllantirish masalalari hali ham chuqur ilmiy tadqiqotlarni talab etadi. Shu jihatdan, mazkur yo'nalishda kompleks ilmiy tadqiqotlar olib borish, mavjud yondashuvlarni tizimli ravishda umumlashtirish va innovatsion takliflar ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kiberxavfsizlik sohasidagi xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribalarni kompleks baholash maqsadida umumilmiy va maxsus tadqiqot usullarining uyg'un kombinatsiyasidan foydalanildi. Xususan, qiyosiy tahlil usuli yordamida AQSh, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya va Singapur davlatlarida qo'llanilayotgan kiberxavfsizlik standartlari, institutsional mexanizmlari va strategik yondashuvlari o'zaro solishtirildi hamda ularning samaradorlik jihatlari aniqlashtirildi.

Statistik tahlil usuli asosida xalqaro tashkilotlar, jumladan, xalqaro moliyaviy institutlar, kiberxavfsizlik agentliklari va rasmiy hisobotlarda keltirilgan ma'lumotlar umumlashtirildi hamda ularning dinamikasi va tendensiyalari baholandi. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarni tizimli o'rganish usuli orqali kiberxavfsizlikni ta'minlashning nazariy asoslari, zamonaviy yondashuvlari va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida case-study yondashuvi qo'llanilib, tanlab olingan rivojlangan davlatlarning milliy kiberxavfsizlik tizimlari, xalqaro standartlarni joriy etish tajribasi hamda ularni milliy sharoitga moslashtirish mexanizmlari chuqur o'rganildi. Mazkur yondashuv orqali ilg'or xorijiy tajribalarni rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan, milliy iqtisodiyot sharoitida qo'llash imkoniyatlari ilmiy jihatdan baholandi.

Bundan tashqari, xalqaro hamkorlik, axborot almashish va xavfsizlik standartlarini joriy etishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar va strategik dasturlar kontent-tahlil usuli asosida o'rganildi. Ushbu tahlil xalqaro tashkilotlarning kiberxavfsizlikni ta'minlashdagi roli, hamkorlik mexanizmlari va ularning amaliy ahamiyatini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar shakllantirildi hamda rivojlanayotgan davlatlar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida ma'lumotlar kompaniya va tashkilotlarning eng muhim strategik aktivlaridan biriga aylandi. Shu sababli, axborot xavfsizligini ta'minlash masalasi tashkilotlar faoliyatining ajralmas qismi sifatida shakllanmoqda. Axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi bilan bir qatorda, ma'lumotlar xavfsizligiga tahdidlar ko'lamini ham ortib bormoqda. Bu esa tashkilotlardan o'z axborot resurslarini himoya qilishga qaratilgan zamonaviy va tizimli xavfsizlik siyosatini joriy etishni talab etadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, samarali kiberxavfsizlik tizimi nafaqat ma'lumotlarni himoya qilish, balki tashkilotlarning moliyaviy barqarorligi, obro'si va raqobatbardoshligini ta'minlashda ham muhim omil hisoblanadi.

Xalqaro tahlillar kiberxavfsizlik tahdidlarining global iqtisodiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi. Xususan, xalqaro ekspertlar baholariga ko'ra, 2022-yilda kiberjinoyatlar oqibatida global iqtisodiy yo'qotishlar hajmi 7 trillion AQSh dollaridan oshgan bo'lsa, 2025-yilga borib ushbu ko'rsatkich 10,5 trillion AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda. Mazkur holat kiberxavfsizlikni ta'minlash masalasining nafaqat texnologik, balki iqtisodiy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi ekanligini ko'rsatadi. Shu bois rivojlangan davlatlar xalqaro standartlarga asoslangan kompleks va tizimli himoya mexanizmlarini joriy etishga alohida e'tibor qaratmoqda.

AQSh tajribasi shuni ko'rsatadiki, National Institute of Standards and Technology tomonidan ishlab chiqilgan NIST Kiberxavfsizlik Ramkasi moliya, sog'liqni saqlash va energetika kabi strategik tarmoqlarda keng qo'llanilmoqda. Ushbu model asosida tashkilotlarda xavflarni aniqlash, baholash, oldini olish va tezkor



javob berish mexanizmlari joriy etilgan. Natijada, kiberxavflarni erta aniqlash imkoniyatlari kengayib, axborot tizimlarining uzluksiz ishlashi va barqarorligi ta'minlanmoqda. Ayniqsa, moliyaviy sektorda real vaqt rejimida monitoring tizimlarining joriy etilishi moliyaviy operatsiyalar xavfsizligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilmoqda.

Yevropa Ittifoqi tajribasida esa European Union Agency for Cybersecurity tomonidan ishlab chiqilgan standartlar asosida davlat va xususiy sektor o'rtasida samarali hamkorlik tizimi yo'lga qo'yilgan. Xususan, CERT (Computer Emergency Response Team) tarmoqlarining shakllantirilishi kiberhodalarga tezkor javob berish imkonini yaratdi. Amaliy natijalar shuni ko'rsatadiki, ushbu mexanizm yordamida Yevropa hududida yuzaga kelgan kiberhujumlarning katta qismi qisqa muddat ichida aniqlanib, ularning salbiy oqibatlari minimallashtirilgan. Bu esa xalqaro standartlarga asoslangan institutsional yondashuvning yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.


Yaponiya tajribasi kiberxavfsizlikni ta'minlashda innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish bilan ajralib turadi. Xususan, sun'iy intellekt va mashinaviy o'qitish texnologiyalariga asoslangan tizimlar orqali kiberhujumlarni oldindan prognoz qilish va ularning oldini olish imkoniyatlari kengaytirilgan. Bu esa mamlakatning raqamli infratuzilmasi barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Singapur tajribasi esa milliy kiberxavfsizlik strategiyasini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish orqali samarali natijalarga erishish mumkinligini ko'rsatmoqda. Ushbu mamlakatda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarining rivojlantirilishi, kiberxavfsizlik bo'yicha milliy markazlarning tashkil etilishi va muntazam monitoring tizimining joriy qilinishi kiberxavflarga qarshi kompleks himoya tizimini shakllantirish imkonini berdi.

Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlarga asoslangan kiberxavfsizlik tizimlarini joriy etish:

- axborot resurslarini ishonchli himoya qilishga,
- moliyaviy tizim barqarorligini mustahkamlashga,
- davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirishga,
- raqamli iqtisodiyotda ishonch darajasini oshirishga,
- hamda iqtisodiy xavflarni sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ilg'or xorijiy tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish va xalqaro standartlar asosida milliy kiberxavfsizlik tizimini takomillashtirish raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Yevroglobapa ittifoqida kiberhujimlarni bartaraf etish 2021 -yil¹

Yaponiya ilg'or tajribasida sun'iy intellekt va mashinaviy o'qitishga asoslangan zamonaviy xavfsizlik tizimlari keng joriy etilgan. Jumladan, Tokio Olimpiadasi (2021) davomida kiberxavfsizlik bo'yicha 450 milliondan ortiq so'rovlar va potensial tahdidlar qayd etilgan bo'lsa-da, ularning barchasi samarali boshqarilgan va tadbirlarning uzluksiz hamda barqaror o'tkazilishi ta'minlangan. Bu esa ilg'or texnologik yondashuvlarning amaliy samaradorligini yaqqol namoyon etadi.

Singapur tajribasida esa milliy darajadagi "Cybersecurity Strategy 2021" dasturi doirasida barcha davlat xizmatchilari uchun kiberxavfsizlik bo'yicha majburiy malaka oshirish kurslari joriy etilgan. Shu bilan birga, xususiy sektor IT mutaxassislarini xalqaro sertifikatlash dasturlari asosida tayyorlashga alohida e'tibor qaratilib,

1 Muallif ishlanmasi

sohaga sezilarli investitsiyalar yo'naltirilmoqda. Bu esa mamlakatning kiberxavfsizlik salohiyatini tizimli ravishda mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Xalqaro hamkorlik ham kiberxavfsizlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Jumladan, Global Forum on Cyber Expertise (GFCE), OECD va ITU kabi tashkilotlar doirasida davlatlar o'zaro tajriba almashish, qo'shma ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda yangi xavfsizlik standartlarini ishlab chiqishda faol hamkorlik qilmoqda. Masalan, GFCE platformasida 70 dan ortiq mamlakat ishtirok etib, 100 dan ortiq xalqaro loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.


Mazkur ilg'or xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlarga asoslangan yondashuvlar nafaqat milliy infratuzilmani samarali himoya qilish, balki moliyaviy tizimlar barqarorligini mustahkamlash, davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish hamda raqamli iqtisodiyotda ishonch muhitini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Rivojlanayotgan davlatlar uchun bunday tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish kiberxavfsizlik darajasini oshirish va raqamli rivojlanishni qo'llab-quvvatlashning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda kiberhujumlarning global iqtisodiyotga ta'siri sezilarli darajada ortib bormoqda. Masalan, 2022-yilda kiberjinoyatlar oqibatida dunyo bo'yicha iqtisodiy yo'qotishlar 7 trillion AQSh dollaridan oshgan bo'lib, ekspertlar prognoziga ko'ra, 2025-yilga borib ushbu ko'rsatkich 10,5 trillion dollarga yetishi kutilmoqda. Ushbu holat kiberxavfsizlik choralarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

AQSh tajribasida NIST Cybersecurity Framework moliya, sog'liqni saqlash va energetika kabi strategik tarmoqlarda keng qo'llanilib, tahdidlarni aniqlash, monitoring qilish va ularni samarali boshqarishda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Xususan, moliyaviy sektor uchun risklarni baholash va real vaqt rejimida monitoring qilish tizimlari joriy etilgan.

Yevropa Ittifoqida esa ENISA tomonidan ishlab chiqilgan standartlar asosida davlat va xususiy sektor o'rtasida Computer Emergency Response Team (CERT) tarmoqlari shakllantirilgan. Natijada, 2021-yilda Yevropa hududida yuzaga kelgan kiberhodisalarning 60 foizi qisqa muddatda aniqlanib, samarali tarzda bartaraf etilgan.

Yaponiya kiberxavfsizlikni ta'minlashda ilg'or texnologiyalarni keng joriy etish bo'yicha boy tajribaga ega. Mamlakatda kiberxavfsizlikni mustahkamlash texnologik innovatsiyalarni rivojlantirish, ilmiy-texnik salohiyatni kengaytirish va zamonaviy himoya texnologiyalarini joriy etish orqali amalga oshirilmoqda. Ushbu yondashuv kiber makonda xavfsizlikni ta'minlash va raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda (2-rasm).



2-rasm. Kiberjinoyatlar oqibatida global iqtisodiy yo'qotishlar²


Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari noto'g'ri yoki yetarli darajada himoyalangan holda qo'llanilganda ma'lum xavflarni yuzaga keltirishi mumkin. Biroq ushbu omillar raqamli rivojlanishni cheklash uchun asos bo'lib xizmat qilmasligi kerak. Aksincha, zamonaviy texnologiyalarni yanada takomillashtirish, ularni xavfsiz va samarali qo'llash mexanizmlarini rivojlantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Chunki kiberxavfsizlik o'z mohiyatiga ko'ra global xarakterga ega bo'lib, internet infratuzilmasi xalqaro miqyosda o'zaro bog'langan tizimni tashkil etadi.

2 Muallif ishlanmasi



Kiber tahdidlar manbalari turli davlatlarda joylashgan bo'lishi, ularning aniqlanishi va oldini olish jarayonini murakkablashtirishi mumkin. Shu bilan birga, global kompaniyalar tomonidan ishlab chiqilayotgan dasturiy ta'minot, apparat vositalari va xavfsizlik xizmatlari bir tomondan yangi imkoniyatlar yaratib bersa, boshqa tomondan ularni doimiy ravishda takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu sababli, hatto texnologik jihatdan yuqori rivojlangan davlatlar ham global axborot makonidan ajralmagan holda mutlaq himoyani mustaqil ravishda to'liq ta'minlay olmaydi.

Mazkur holat kiberxavfsizlikni ta'minlash masalasi iqtisodiyot, mudofaa, moliyaviy tizimlar va axborot infratuzilmasi barqarorligi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, tajriba almashish, yagona standartlar va qo'shma himoya mexanizmlarini shakllantirish kiberxavfsizlikni mustahkamlashning eng samarali va istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi (3-rasm).



3-rasm Ilg'or davlatlar tajribasining samaradorlik darajasi (%)³

Xalqaro hamkorlikning eng keng tarqalgan va samarali shakllaridan biri bu kiberxavfsizlik sohasida ma'lumot almashish hisoblanadi. Mazkur jarayon kiber tahdidlarni erta aniqlash, ularning oldini olish hamda tezkor choralar ko'rish imkonini beradi. Shu bilan birga, hozirgi kunga qadar qaysi turdagi kiberxavfsizlikka oid ma'lumotlar, qaysi subyektlar o'rtasida, qanday maqsadlarda va qanday shartlar asosida almashilayotgani masalalari yetarli darajada tizimli va kompleks o'rganilmagan.

Shu munosabat bilan, Xalqaro kiberxavfsizlik ma'lumot almashish loyihasi doirasida davlatlararo hamkorlik kelishuvlari chuqur tahlil qilinib, ular asosida qanday turdagi axborotlar almashilishi mumkinligi, ushbu jarayonning institutsional va huquqiy mexanizmlari hamda amaliy ahamiyati aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur yondashuv kiberxavfsizlik sohasida xalqaro hamkorlik samaradorligini oshirish, o'zaro ishonchni mustahkamlash hamda global axborot makonining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda kiberxavfsizlik nafaqat alohida kompaniya yoki tashkilot darajasida, balki milliy va global iqtisodiyot barqarorligini ta'minlovchi strategik omillardan biriga aylandi. Xalqaro standartlarga asoslangan ilg'or xorijiy tajribalar, xususan, AQShning NIST kiberxavfsizlik ramkasi, Yevropa Ittifoqining ENISA tashabbuslari, Yaponiyaning sun'iy intellektga asoslangan xavfsizlik yechimlari hamda Singapurning milliy kiberxavfsizlik strategiyasi kiber tahdidlarni samarali kamaytirish va axborot tizimlari barqarorligini mustahkamlashda yuqori natijadorlikni namoyon etmoqda. Shuningdek, xalqaro hamkorlik, axborot almashish va qo'shma loyihalar orqali davlatlar o'zaro tajriba almashib, global kiber tahdidlarga qarshi kurashishda hamkorlikni yanada rivojlantirmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun mazkur ilg'or tajribalarni milliy sharoitlarga moslashtirish, xalqaro standartlarga asoslangan holda kiberxavfsizlik siyosati va infratuzilmasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kiberxavfsizlik masalasi milliy chegaralardan tashqariga chiqib, raqamli iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:



1. Milliy kiberxavfsizlik tizimini takomillashtirishda NIST, ISO/IEC 27000 va ENISA kabi xalqaro standartlar asosida yagona metodologik yondashuvni joriy etish zarur.
 2. Davlat va xususiy sektor o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish orqali kiberxavfsizlikni ta'minlashning institutsional asoslarini mustahkamlash lozim.
 3. Kiber tahdidlarni erta aniqlash va oldini olish maqsadida real vaqt rejimida ishlovchi monitoring va tezkor javob berish tizimlarini keng joriy etish maqsadga muvofiq.
 4. Kiberxavfsizlik sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislarning bilim va malakasini oshirish, ularni xalqaro sertifikatlash dasturlari asosida tayyorlash tizimini rivojlantirish zarur.
 5. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish, axborot almashish va qo'shma tadqiqot loyihalarida faol ishtirok etish orqali milliy kiberxavfsizlik tizimining barqarorligini oshirish lozim.
- Umuman olganda, xalqaro tajribalarni samarali joriy etish orqali milliy axborot infratuzilmasi xavfsizligini mustahkamlash, raqamli iqtisodiyotga bo'lgan ishonchni oshirish hamda uning barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. National Institute of Standards and Technology (NIST). (2018). Framework for Improving Critical Infrastructure Cybersecurity. U.S. Department of Commerce. Available at: <https://www.nist.gov/cyberframework>
2. European Union Agency for Cybersecurity (ENISA). (2021). Cybersecurity Guidelines and Best Practices. Available at: <https://www.enisa.europa.eu>
3. Global Forum on Cyber Expertise (GFCE). (2023). Projects and Initiatives. Available at: <https://thegfce.org>
4. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2022). OECD Digital Security Risk Management. Paris: OECD Publishing. Available at: <https://www.oecd.org>
5. International Telecommunication Union (ITU). (2022). Global Cybersecurity Index (GCI). Geneva: ITU. Available at: <https://www.itu.int>
6. Cybersecurity Ventures. (2022). Cybercrime Report 2022: Cybercrime Costs Projected to Reach \$10.5 Trillion by 2025. Available at: <https://cybersecurityventures.com>
7. European Commission. (2021). Cybersecurity Strategy for the Digital Decade. Brussels: European Commission. Available at: <https://digital-strategy.ec.europa.eu>
8. Ministry of Internal Affairs and Communications of Japan. (2021). Cybersecurity Strategy of Japan. Tokyo. Available at: <https://www.soumu.go.jp>
9. Cyber Security Agency of Singapore. (2021). Singapore Cybersecurity Strategy 2021. Government of Singapore. Available at: <https://www.csa.gov.sg>



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100